

Yondosh mavzu:
sog'lom ovqatlanish.

To'plam,
to'plamlar elementlari.



1. To'plamlarning elementlarini umumiy so'z bilan ayting. Bu to'plamlarda yana qanday elementlar bo'lishi mumkin?



To'plamning elementlari shu to'plamga tegishli deyiladi. Bu munosabatni yozish uchun $\in$ belgisidan foydalaniladi.

$A = \{1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9\}$ bo'lsin.

$2 \in A$ – 2 soni A to'plamga tegishli.

$0 \notin A$ – 0 soni A to'plamga tegishli emas.



2. M ikki xonali sonlar to'plami bo'lsin. Nuqtalar o'rniga $\in$ yoki $\notin$ belgilaridan mosini qo'yib, ularni daftaringizga yozing.

26 ... M

307 ... M

940 ... M

73 ... M

1 ... M

40 ... M

130. To'plamga tegishlilik



3. To'plamlarni ularning elementlarini sanab o'tish bilan yozing:

- a) A – zararli mahsulotlar to'plami;
- b) B – yil oylari to'plami;
- d) C – rim raqamlari to'plami;
- e) D – 9 ga karrali ikki xonali sonlar to'plami.



4. A to'plamni quyida berilganlar bo'yicha tuzing. Bu to'plam elementlari qanday umumiy xususiyatga ega?

$15 \in A$ $30 \in A$ $26 \notin A$ $14 \notin A$ $40 \in A$ $85 \in A$




5. K to'plam barcha uch xonali sonlardan tashkil topgan.

- a) $234 \cdot 8 - 724$, $554 + 21 \cdot 33$, $1024 : 16 : 8$, $1000 - 332 : 2$ sonlari K to'plamga tegishlimi?
- Buni $\in$ yoki $\notin$ belgilaridan foydalanib yozing.



6. Kompleks masalalarni yeching. Har bir band uchun ifoda yozing. Noma'lumlarning berilgan qiymatlaridan foydalanib, ularning qiymatini hisoblang.

- a) Bitta pirojniy uchun retsept bo'yicha m gramm un kerak bo'ladi. n ta pirojniy uchun qancha un kerak? ($m = 80$, $n = 20$)
- b) Har bir pirojniyning pastki qavati k ta, yuqorigi qavati esa t ta olcha mevasi bilan bezatilgan. Jami qancha olcha mevasi kerak bo'lgan? ($k = 12$, $t = 5$)
- d) Har bir pirojniyning tag qismi tomoni a bo'lgan kvadrat shaklidagi biskvit bo'lagidan iborat bo'ladi. Bu bo'lakning yuzi qanday? ($a = 12$)
- e) Har bir pirojniyga b gramm krem kerak bo'ladi. Bu pirojniylar uchun jami qancha krem kerak bo'ladi? ($b = 40$)
- f) Rasmda pirojniylarning qutiga qanday joylanishi ko'rsatilgan. Bu pirojniylar joylangan quti tagining yuzi qanday?





7. Maktab oshxonasida 2ta kastrulkada quritilgan mevalardan kompot tayyorlandi: birida 45 litr, ikkinchisida esa 30 litr kompot bor. Bir litr kompot 5 stakan chiqadi. Agar maktabda 327 nafar o'quvchi tushlik qilsa va ularning har biri bir stakandan kompot ichsa, necha stakan kompot ortib qoladi?



8. Misollarni yeching. Bu yerda qanday so'z yashiringan?

A $27\,139 + 35\,457$

M $28\,809 + 51\,947$

V $146\,404 - 99\,239$

N $78\,210 - 9\,568$

E $270\,642 : 6$

T $135\,548 : 4$

I $3\,080 \cdot 20$

K $1\,009 \cdot 43$

47 165	61 600	33 887	62 596	80 756	61 600	68 642
--------	--------	--------	--------	--------	--------	--------



9. Bir patnisda 12ta somsa bor, ularning bir qismi go'shtli, bir qismi qovoqli, yana bir qismi esa kartoshkali. Kartoshkali somsalar hammasidan ko'p bo'lib, ularning soni go'shtli somsalar sonidan 3 marta ko'p. Go'shtli somsalar esa qovoqli somsalardan kamroq. Patnisda nechta qovoqli somsa bor?



10. Amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda hisoblang.

$$(563\,251 - 196\,321) : 9 + 12\,330 - 9\,000 : 15$$

$$4\,200 : 14 + 2\,000 \cdot (489 - 428) : 10$$



11. M to'plam – 10 ga bo'linadigan ikki xonali sonlar to'plami. Quyidagi sonlardan qaysilari shu to'plamga tegishli ekanini aniqlang.

a) 50 soni;

b) 27 soni;

d) $2 \cdot 8 \cdot 10$ soni;

e) $220 : 10$ soni;

f) $7 \cdot 10$ soni;

g) eng kichik ikki xonali son.

Natijalarni $\in$ yoki $\notin$ belgilaridan foydalanib yozing.